

**O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASI INFRATUZILMA
LOYIHALARINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ VOSITALARINI
QO'LLANILISHI**

Sharipov Eldor Salohiddin o'g'li
Sharipov_eldor@gmali.com

ANNOTATSIYA

Bizning ushbu tadqiqotimizda rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda qurilish sohasida infratuzilma loyihalarini ishlab chiqishda foydalaniladigan soliq vositalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni rag'batlantirishda soliq mexanizmlarining roli va o'rni, ushbu sohada rivojlangan davlatlarning qurilish sohasida soliq vositalaridan foydalanish usullari va modellari tahlil qilinib, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: soliq, davlat moliya nazorati, moddiy ishlab chiqarish, moliyaviy nazorat, davlat siyosati, iqtisodiy xavfsizlik, bozor munosabatlari, pul jamg'armalari, soliq subyektlari, moliya tizimi, majburiy to'lovlar

ANNOTATION

In this study of us, it is devoted to the analysis of tax instruments used in the development of infrastructure projects in the construction sector, taking into account the experience of developed countries. The work analyzes the role and role of tax mechanisms in stimulating investments in infrastructure projects, methods and models of the use of tax instruments in the construction sector of developed countries in this area, and develops proposals for their improvement in the conditions of the economy of Uzbekistan.

Keywords: tax, state financial control, material production, financial control, public policy, economic growth, Budget-Tax Policy, financial stability, economic security, market relations, Monetary Funds, Tax entities, financial system, mandatory payments

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, qurilish sohasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida qurilish sanoatining ulushi 10 foizdan ortiqni tashkil etadi. So'nggi yillarda ushbu ko'rsatkich barqaror o'sishni ko'rsatmoqda, bu esa ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyoti uchun

ahamiyatidan dalolat beradi. Bundan tashqari, tahlillarga ko‘ra, ishchi kuchining qariyb 15 foizi qurilish sohasida band bo‘lib, uning ijtimoiy ahamiyati va mehnat bozoriga ta’sirini alohida ta’kidladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi iqtisodiy tizimning ikki asosiy subyekti: xususiy sektor va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning yuqori samarali mexanizmi hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklikning samarali modellaridan foydalanish iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlarini boshqarishning an’anaviy usullariga samarali muqobildir. Shuning uchun bu masalalarni har tomonlama o‘rganish milliy va davlatlararo miqyosda iqtisodiy rivojlanishning real imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan¹. Bugungi kunda davlat-xususiy munosabatlarni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘silalar davlatxususiy sheriklikdan faol foydalanishda davlat siyosati samaradorligini oshirish imkonini beruvchi samarali usullarning yo‘qligi, shuningdek, davlat va biznes hamkorligining institutsional va axborot ta’mintoning zaifligidir. Bunday hamkorlik sifatini oshirish davlat-xususiy sheriklikning puxta o‘ylangan nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirish, mamlakat raqobatbardosh salohiyatidan samarali foydalanish va jahoning muvaffaqiyatli tajribasini hisobga olish orqali mumkin bo‘ladi.

Ekspert va ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan tahlilchilarning fikricha, infratuzilmaga davlat investitsiyalari xususiy investorlarga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, bu esa byudjet manbalari yetarli bo‘lmagan va davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlari ortib borayotgan sharoitlarda ayniqsa muhimdir. Investitsiyalarda ishtirok etuvchi korxonalar xarajatlarni kamaytirish hisobiga qo‘shimcha transport, aloqa, energiya va suv ta’mintoni kabi imtiyozlarga ega bo‘ladilar.

Afsuski, hozirgi vaziyat shundayki, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham infratuzilma loyihamariga sarmoya kiritishga shoshilinch ehtiyoj bor. Masalan, Qo‘shma Shtatlarda infratuzilmani tiklash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar uchun umumiyligi ehtiyoj 2015-yilgacha bo‘lgan davrda 1,6 trillion dollarga baholanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolamizda olib borilgan tadqiqt davomida nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli yondashuv, guruhash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqtlar asosida soliq nazoratini tashkil etish va o’tkazish tartibini o‘ziga xos xususiyatlari faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil

¹ 1. Захаров А.Н. Роль механизмов государственно-частного партнерства в решении экономических и социальных проблем России // Мировое и национальное хозяйство. 2011. № 1. С. 1–2.

qilish yo'llarini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosida takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan shuni kuzatish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari aholi turmush farovonligini yaxshilash, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va pirovardida,mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda². Shuning uchun, bugungi kunda davlatxususiy sheriklik amaliyotini mamlakat iqtisodiyotida kengroq joriy etish, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga xususiy investorlarni qiziqishini oshirish, xususiy investorlarning infratuzilma loyihamalarini moliyalashtirishdan oladigan daromadlilagini oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida muvaffaqiyatli xorij mamlakatlari tajribasini o'rganish, mamlakatimizda qo'llanishi mumkin bo'lgan jihatlarni tahlil qilish, iqtisodiyotimiz uchun xos bo'lgan jihatlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida muhim bo'lgan sohalar, sog'liqni saqlash, ta'lif, transport, energetika sohalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini yanada kengroq joriy etish, xususiy investorlarni kengroq jalb etish, loyihamalarni moliyalashtirishda xususiy investorlar mablag'laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi³.

O'zbekistonda ta'lif, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika, transport, axborot kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish dolzarb bo'lib turgan ayni vaqtda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, ijtimoiy muhim infratuzilma loyihamalarni amalga oshirishda xususiy sektor mablag'laridan foydalanish borasidagi islohotlarga qaramasdan, sohaga xususiy sektor mablag'larini yo'naltirish darajasi pastligicha qolmoqda.


Mamlakatimizda 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish va bunda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lif, ekologiya, communal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish, hamda, davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihamalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni o'zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishni talab etmoqda⁴. Bu esa

² Shokhin S.O. Pravovoe obespechenie gosudarstvenno-chastnogo partnerstva s uchastiem malogo i srednego biznesa [Legal support to public-private partnership with participation of small and medium business]. Juridicheskii mir = Juridical World, 2013, no. 12, pp. 40–44

³ 3. Larionova I.V. Finansirovanie infrastrukturykh proektor s ispol'zovaniem mekhanizma otlozhennykh nalogovykh platezhei [Financing infrastructure projects using the Tax Increment Financing mechanism]. Ekonomika. Nalogi. Pravo = Economy. Taxes. Law, 2013, no. 5, pp. 51–56.

⁴ 4. Reforming Infrastructure: Privatization, Regulation and Competition. Washington, D. C. World Bank, Policy Research Report, 2004

davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni keng amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.



1-rasm. O‘zbekiston tashqi qarzining o‘zgarish dinamikasi⁵.

Manba: stat.uz ma’lumotlari asosida.

Infratuzilmani moliyalashtirishda davlat tashqi qarzi ulushini oshib borishi va ular hisobiga olingan moliyaviy resurslar ma’lum bir darajada chegaralanganligi evaziga, davlat-xususiy sheriklik orqali xususiy investorlarning mablag‘larini infratuzilma loyihibalarini moliyalashtirish uchun yo‘naltirish mamlakatda tashqi qarzga bo‘lgan ehtiyojni ma’lum bir darajada chegaralash imkonini beradi. 2022-yil davomida O‘zbekiston davlat qarzi 2,9 milliard dollarga ko‘payib, 29,2 milliard dollarni yoki YaIMga nisbatan 36,4 foizni tashkil etdi. Davlat qarzining 90 foizdan ortiq qismi xorijiy valyutada jalb qilingan. 2023-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat qarzi 29,2 milliard dollarga etdi. Bu – mamlakat tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichdir (1-rasm).

Davlat qarzi 2022-yil 3-choragiga nisbatan 3,1 milliard dollarga ko‘paygan, YaIMga nisbatan ulushi ham 2,3 foizga oshib 34,1 foizdan 36,4 foizga yetgan. Taqqoslash uchun, 2022-yilning 1-oktyabr holatiga davlat qarzi 26,2 milliard dollarni tashkil etgan⁶.

Davlat qarzining umumiyligi miqdori yildan yilga oshayotgan bo‘lsa-da, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2020-yildan keyingi davrda kamaygan. Jahon banki (JB) prognozlariga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati o‘zining qarz olish cheklovlariga rioya qilishda davom etishi kutilmoqda. Davlat qarzi va umumiyligi tashqi

⁵ : stat.uz ma’lumotlari asosida

⁶ 5. Ungboyevich, Mustafakulov O’ktam. "RAQAMLI PLATFORMALARNI O’RGANISHDA JAHON ILMIY TADJIRIBASI." SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6.6 (2023): 160166-160166.

qarz 2024-yil oxiriga kelib YaIMning mos ravishda 32 va 55 foizigacha bosqichma-bosqich kamayishi mumkin.

Birinchidan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko‘lami doimo o‘sib boruvchi xarakterga ega. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun davlatda 2 ta muqobil yechim mavjud: soliqlarni oshirish yoki tashqi qarz va investitsiya mablag‘larini jalg qilish. Soliqlarni oshirish istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirish rag‘batlariga putur yetkazishi hisobga olinsa, ko‘plab rivojlangan davlatlar ikkinchi yo‘lni tanlashni afzal ko‘rishadi⁷.

Ikkinchidan, kovid va postkovid davri dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tashqi qarz o‘sishiga olib keldi. Xususan, ushbu omillar ta’sirida 2020-yilda qarz jalg qilish miqdori keskin oshganini (17,8 milliard dollardan 23,4 milliard dollarga) ko‘rish mumkin.

Uchinchidan, davlat byudjeti taqchilligining oshib borayotgani. 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich YaIMning 3,9 foizini yoki qariyb 35 trln. so‘m tashkil etdi.


2023-yilda O‘zbekiston nomidan va kafolati ostida tashqi qarzlarni jalg qilish bo‘yicha yillik imzolanadigan bitimlarning umumiy qiymati 4,5 milliard dollarni tashkil qilishi, shundan davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlash, byudjet taqchilligi uchun 2 milliard (bu o‘tgan yilga nisbatan 500 milliard dollarga kam), investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun esa 2,5 milliard dollar (bu o‘tgan yilga nisbatan 500 mln. dollar ko‘p) jalg qilinishi belgilangan edi. Mamlakat aholisining tez suratlarda o‘sishi va infratuzilmaga bo‘lgan talabning keskin oshishi davlat xizmatlari va infratuzilmani yangilash uchun katta xarajatlarni talab etadi. Fikrimizcha, bunday sharoitlarda davlat tashqi qarzga katta e’tibor qaratmasdan, davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investorlarni kengroq jalg etishi, xususiy investorlarni infratuzilmani moliyalashtirishdan oladigan manfaatdorligini oshirish orqali xususiy sherik mablag‘larini yo‘naltirishi maqsadga muvofiqdir⁸. Shuningdek, iqtisodiyotining bugungi sharoitida davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalari uchun xususiy investitsiyalarni yo‘naltirish va xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar va imkoniyatlar yaratish hamda ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, ijtimoiy loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalg etishning optimal mexanizmlarini joriy etish yo‘llarini ilmiy tadqiq etishga e’tiborni kuchaytirish talab etiladi.

Horij tajribasidan ma’lumki qurilish sohasidagi infratuzilma loyihalarining asosiy qismi mega loyihalar hisoblanadi. Bu esa juda katta miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qilinishiga sabab bo‘ladi. Demak, mamlakatimizda qurilish sohasidagi infratuzilma loyihalarini rivojlantirish uchun avvalo moddiy baza tashkil etuvchilariga

⁷ 7. Азизова, М. И., & Мустафакулов, У. У. (2022). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИЯХ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 226-232.

⁸ 6. Ungboyeich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.

bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish talab etiladi. O’rganishlar natijasida ko‘rishimiz mumkinki infratuzilma loyihamalarining moliyaviy tashkil etuvchi elementlari asosan 2-rasmda ko‘rsatilgan sxema ko‘rinishida bo‘ladi.



2-rasm. Infratuzilma aktivlariga sarmoya kiritish uchun moliyaviy vositalar.

Manba: tahlillar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Mazkur vositalarni rivojlantirish orqali infratuzilma loyihamalarining moliyaviy bazasini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu vositalarning faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat moliyaviy resurslar bazasini balki kutilayotgan risklarning xavf darajasiga ham oldindan qisman bo‘lsada yechim topish mumkin.

Investitsion aktivlarning an'anaviy toifasi, masalan, moliyaviy bo‘lmagan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan etarli miqdordagi tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lgan ochiq kompaniyalarning aktsiyalari va obligatsiyalari. Infratuzilmaviy investitsiya loyihasi ulardan potentsial investitsiya risklarini tahlil qilish juda qiyinligi bilan farq qiladi. Institutsional investorlar infratuzilma aktividan investitsiya qiymati zanjirida eng uzoq o‘rinni egallaydi va odatda investitsiya qarorini qabul qilish uchun to‘liq ma’lumotga ega emas. Shu bilan birga, ular uchun “uzoq muddatli pul” egalari sifatida infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishning uzoq muddatlari tufayli infratuzilma optimal investitsiya obyektiga aylanishi mumkin⁹.

Fikrimizcha qurilish sohasidagi infratuzilma loyihamalarini muvofaqiyatli amalga oshirish uchun moddiy bazaning shakllanishining o‘zi yetarli emas. Bu borada hukumat tomonidan qo‘sishma bir qancha chora tadbirlar ko‘rilishi kerakligi jaxon tajribasidan ham ma’lum. Infratuzilmani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari. Infratuzilmani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

⁹ 6. Ungboyevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.

Eng oddiy variant - davlat kafolatlarini taqdim etish bo‘lib, u holda davlat loyihaning to‘lanmaganligi va to‘lovga qodir bo‘lmagan taqdirda asosiy qarzni to‘lash majburiyatini oladi. Bunday holda, xususiy investorlar kutilmagan moliyaviy muvaffaqiyatsizlikdan 100% himoyalangan. Bu ilgari faqat davlat ishtiroki bo‘lgan loyihalarga xususiy investitsiyalarning o‘sishiga yordam beradi, lekin bu davlat uchun katta moliyaviy xavflarni keltirib chiqaradi¹⁰.

Davlatdan subordinatsiyali kredit berish. Ushbu vositadan foydalanish ilgari olingan qarz mablag‘lari (ssudalar yoki obligatsiyalar) sifatini yaxshilaydi. Uning mohiyati shundan iboratki, subordinatsiya qilingan ssudadan olingan mablag‘lar loyiha moliyaviy muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, birinchi navbatda, birlamchi manbalarni qoplash uchun birinchi navbatda qoplanadi. Bu, shuningdek, xususiy mablag‘larni, birinchi navbatda, bank mablag‘larini jalb qilishga yordam beradi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shma investitsiyalarning o‘zgarishi. Umumiy javobgarlik shakllari, imtiyozlar, infratuzilma ipotekalari va davlat-xususiy o‘zaro munosabatlarning boshqa variantlari mavjudligi. Davlat ishlayotgan ob‘ektni oladi, uni qurish yoki rekonstruksiya qilishni moliyalashtirishni tejaydi, tadbirkorlar ob‘ektni keyingi ekspluatatsiya qilishdan daromad oladilar¹¹.

Xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlari. Ushbu mexanizmni qo‘llashga misol sifatida xalqaro infratuzilma banklarining barcha ishtirokchi-davlatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan xorijiy infratuzilma loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga tayyor kreditlarini keltirish mumkin. Bunday kreditlar infratuzilma loyihalariga dastlabki investitsiyalarning 35% gacha bo‘lishi mumkin. Ular boshqa kreditlardan past foiz stavkasi, uzoq muddatli (35 yilgacha) va loyihaga jalb etilishi bilan ajralib turadi.

Loyiha bilan bog‘liq qarz qimmatli qog‘ozlarini chiqarishning turli usullaridan foydalanish. Bunga misol sifatida infratuzilma, davlat, korporativ obligatsiyalarni ko‘rsatishimiz mumkin. Bu vosita boshqa mamlakatlarda, masalan, Avstraliya, Frantsiya va Chilida keng ishlab chiqilayotgan juda istiqbolli vositadir.

XULOSA

Tahlil va tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda xuloasa qilib kelgusida qurilish sohasida infratuzilma loyihalarini rivojlantirish uchun soliq vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni taklif etishimiz mumkin:

– Infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni rag‘batlantirishga ko‘maklashuvchi innovatsion soliq mexanizmlarini yaratish va joriy etish bo‘yicha faol ish olib borish

¹⁰ 7. Азизова, М. И., & Мустафакулов, У. У. (2022). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИЯХ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 226-232.

¹¹ 8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi 2019 yil 10 may O‘RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4329270>

zarur. Bu infratuzilma loyihamalarini qurish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki soliq imtiyozlarining turli shakllarini o'z ichiga olishi mumkin;

– Ekologik toza va barqaror infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishni rag'batlantirish uchun soliq mexanizmlarini ishlab chiqishda ekologik jihatlarni hisobga olish muhimdir. Bu atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihamalar uchun soliq imtiyozlarini berishni o'z ichiga olishi mumkin;

– Soliq siyosati qurilish sohasida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni faol qo'llab-quvvatlashi, loyihamarni boshqarish, monitoring va sifat nazoratining zamonaviy usullarini joriy qilishni rag'batlantirishi kerak. Bu infratuzilma loyihamalarini amalga oshirish samaradorligini oshiradi va ularning muddatlarini qisqartiradi;

– Soliq mexanizmlari orqali infratuzilmani rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish resurslardan samaraliroq foydalanishga va asosiy ob'ektlar qurilishiga xususiy sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi;

– Soliq vositalarini malakali qo'llash va infratuzilma loyihamalarini samarali boshqarish uchun yuqori malakali soliq va qurilish mutaxassislarini tayyorlashga sarmoya kiritish muhim.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi qulay investitsiya muhitini yaratish, qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirish va infratuzilmaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish va fuqarolarning hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Захаров А.Н. Роль механизмов государственно-частного партнерства в решении экономических и социальных проблем России // Мировое и национальное хозяйство. 2011. № 1. С. 1–2.
2. 16. Shokhin S.O. Pravovoe obespechenie gosudarstvenno-chastnogo partnerstva s uchastiem malogo i srednego biznesa [Legal support to public-private partnership with participation of small and medium business]. Juridicheskii mir = Juridical World, 2013, no. 12, pp. 40–44
3. Larionova I.V. Finansirovanie infrastrukturnykh proektov s ispol'zovaniem mekhanizma otlozhennykh nalogovykh platezhei [Financing infrastructure projects using the Tax Increment Financing mechanism]. Ekonomika. Nalogi. Pravo = Economy. Taxes. Law, 2013, no. 5, pp. 51–56.
4. Reforming Infrastructure: Privatization, Regulation and Competition. Washington, D. C. World Bank, Policy Research Report, 2004
5. Ungboyevich, Mustafakulov O'ktam. "RAQAMLI PLATFORMALARNI O'RGANISHDA JAHON ILMIY TADJIRIBASI." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6.6 (2023): 160166-160166.

6. Ungboyevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.
7. Азизова, М. И., & Мустафакулов, У. У. (2022). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИЯХ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 226-232.
8. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida"gi 2019 yil 10 may O‘RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4329270>
9. Tilabov N.T. Xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi". 2022. – 227 bet.